



SAYLOVOLDI TASHVIQOTINI TASHKIL QILISH SHAKLLARI: MAHALLIY DEPUTATLIK MISOLIDA

Nazarov Elbek Alimovich

Urganch Davlat universiteti katta o'qituvchisi

@elbek0484@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola xalq deputatlari kengashlari deputatligiga nomzodlarning saylov jarayonlarining muhim bosqichlaridan biri bo'lgan saylovoldi tashviqot faoliyatini tahlil qiladi. Maqolada nomzodlarning tashviqot uslublari va shakllari, saylovda ishtirok etuvchi subyektlar, hamda saylovoldi tashviqoti jarayoni subyekti hisoblanmaydigan shaxslar, bundan tashqari mazkur jarayonda taqiqlangan tashviqot uslublari haqida, shuningdek, saylovoldi tashviqotini olib borish shartlari va tartibiga rioya qilinishi ustidan nazorat xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Saylovoldi tashviqoti, deputatlikka nomzod, saylov kompaniyasi, ishonchli vakillar, tashviqot shakllari, saylovoldi dasturlar, saylovoldi tashviqoti materiallari.

Назаров Эльбек Алимович

Старший преподаватель

Ургенчского государственного университета

@elbek0484@umail.uz

Аннотация. В данной статье анализируется агитационная деятельность кандидатов в депутаты Советов народных депутатов, являющаяся одним из важных этапов избирательного процесса. Рассматриваются методы и формы агитации кандидатов, субъектов, участвующих в выборах, а также лиц, не считающихся субъектами агитационного процесса, а также методы агитации, запрещенные в данном процессе, и контроль за соблюдением условий и порядка проведения агитации.

Ключевые слова. избирательная кампания, кандидат в депутаты, избирательная компания, доверенности, формы кампании, избирательные программы, избирательные материалы.

Nazarov Elbek Alimovich

Senior Lecturer, Urgench State University

@elbek0484@umail.uz

Annotation. This article analyzes the campaigning activities of candidates for deputies of the Councils of People's Deputies, which is one of the important stages of





the electoral process. The article discusses the methods and forms of campaigning of candidates, subjects participating in the elections, as well as persons who are not considered subjects of the campaigning process, as well as methods of campaigning prohibited in this process, as well as control over compliance with the conditions and procedure for conducting campaigning.

Keywords. *Election campaign, candidate for deputy, election company, proxies, forms of campaign, election programs, election campaign materials.*

Saylovoldi tashviqot siyosiy jarayonning ajralmas qismi bo'lib, deputatlikka nomzodlarning o'z dastur va g'oyalarini saylovchilarga yetkazish, ularning e'tiborini jalb qilish hamda saylov natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatish vositasidir. Mahalliy deputatlik saylovlarida tashviqot jarayoni nafaqat nomzodning shaxsiy obro'si, balki uning siyosiy strategiyasi va muloqot uslublari bilan bevosita bog'liqdir. Demokratik jarayonlarning rivojlanishi, axborot-kommunikatsiya vositalarining kengayishi va saylovchilarning siyosiy faolligining oshishi saylovoldi tashviqotning samaradorligini yanada muhimlashtirmoqda. Shu bois, nomzodlarning tashviqot strategiyalari, ishlatiladigan vositalar va ularning natijalari ilmiy jihatdan o'rganilishi zarurati ham oshib bormoqda.

Saylovoldi tashviqoti — saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni deputatlikka nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyat. Saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlarni va Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxatini belgilangan tartibda ro'yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning ertasidan e'tiboran boshlanadi va ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin tugatiladi. Deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar saylovoldi tashviqotini olib borish borasida teng huquqlarga ega.

Deputatlikka nomzod deputat etib saylanishi uchun uning nomidan ishonchli vakillar hamda Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxati bo'yicha nomzodlar saylanishi uchun siyosiy partiyalar saylovoldi tashviqotini olib borishlari mumkin.

Saylovoldi tashviqoti:

siyosiy partiyaning dasturi va (yoki) saylovoldi platformasi to'g'risidagi axborotni o'zining deputatlikka nomzodlarini yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish;

deputatlikka nomzod va siyosiy partiya to'g'risidagi axborotni uni yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish shaklida olib boriladi.

Saylovoldi tashviqoti omma oldida ochiq munozaralar, bahslar, matbuot konferensiyalari, fuqarolarning yig'ilishlari, intervyular, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar, video va audio roliklarni joylashtirish shaklida olib borilishi mumkin.

Saylovoldi tashviqoti:



OAV, shu jumladan televideniye, radio, gazeta va jurnallar, umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari (shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'i) orqali;

bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini (plakatlar, varaqalar va boshqa materiallarni) chop etish hamda tarqatish;

saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Quyidagilarning saylovoldi tashviqotini olib borishi taqiqlanadi:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining, sudyalarning;

saylov komissiyalari a'zolarining;

diniy tashkilotlar professional xizmatchilarining.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslariga o'z mansab va xizmat mavqeyidan saylovoldi tashviqoti vaqtida har qanday siyosiy partiyaning yoki nomzodning foydasiga yoxud unga qarshi foydalanishi taqiqlanadi.

Deputatlikka nomzodlarning tarjimai holi va ularning saylovoldi dasturlari, shuningdek partiya ro'yxati va siyosiy partiyalarning dasturlari to'g'risidagi tegishincha O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi, hududiy, tuman, shahar saylov komissiyalarining axborot materiallari (plakatlari) saylovoldi tashviqoti materiallari hisoblanmaydi.

Saylovoldi tashviqotini saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko'rsatish (axborot xizmatlaridan tashqari), shuningdek pul mablag'lari to'lash bilan qo'shib olib borish taqiqlanadi. Shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini buzish, noto'g'ri axborotni, nomzodlarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma'lumotlarni, shuningdek yolg'on (shu jumladan, chalg'itadigan yoki adashtirib yuboradigan darajadagi), boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazuvchi har qanday saylovoldi tashviqoti materiallarini, shu jumladan sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda, tayyorlash va tarqatish taqiqlanadi. Saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganida saylovoldi tashviqotiga yo'l qo'yilmaydi. Bundan tashqari, binolarga, inshootlarga va boshqa joylarga ilgari (jumladan, saylov kunidan ikki kun oldin) joylashtirilgan saylovoldi tashviqoti materiallarini saylov kuni va ovoz berishdan bir kun oldin olib qo'yilishi majburiy hisoblanmaydi.

Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi butun hududida saylovoldi tashviqotini olib borish shartlari va tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.



Hududiy, tuman, shahar saylov komissiyalari va okrug saylov komissiyalari tegishli hududida saylovoldi tashviqotini o'tkazish shartlari va tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Xalq deputatlari kengashlariga nomzodlarning saylovoldi tashviqotining samaradorligi ularning kommunikatsiya strategiyasini tanlash, maqsadli auditoriyani aniqlash va turli tashviqot vositalaridan oqilona foydalanish bilan bevosita bog'liqdir. Mahalliy deputatlik saylovlarida nomzodlarning tashviqot uslublari ularning saylovchilarga ta'sirini belgilab beradi va natijada saylov jarayonining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023
2. “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2.09.1993
3. “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2.12.2004
4. “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlarning va siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqotini olib borish tartibi to'g'risida”gi Nizom.02.07.2024
5. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. T-2024